

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

SIRDARYO VILOYATI BAXSHICHILIK SAN’ATIDA MUROD SHOIR OTABOY O‘G‘LINING IJODIY MAHORATI

Oygul Maxamatalieva AXMEDOVA,

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti professor v.b., filologiya fanlari nomzodi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290721>

Annotatsiya: Sirdaryo viloyatida ham ko‘plab taniqli baxshilar yashab ijod etgan, bugungi kunda ular ijodini tadqiq etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Sirdaryoda yashab ijod etgan Murod shoir Otaboy o‘g‘li ijodi manbalarga tayangan holda tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: Murod shoir. “Zorliq va Mungliq”, baxshilar mahorati, repertuar, dostonchilik an‘analari, epik an‘ana, doston, baxshi.

Abstract: Many famous bakhshis lived and worked in the Syrdarya region, and today the study of their work is one of the important issues. In this article, the work of Murod the poet Otaboy oglu, who lived and worked in Syrdarya, is analyzed based on sources.

Keywords: Murod the poet. “Zorlyq va Munglyq”, bakhshi skills, repertoire, epic traditions, epic tradition, epic, bakhshi.

“Qadim-qadimdan do‘mbira va chanqovuz sadolari yangrab kelgan, folklor bo‘yicha boy meros va an‘analarga ega bo‘lgan bu sahovatli diyor bag‘ridan Murod baxshi, Hamroqul baxshi, Gulmurod baxshi, Akram bulbul, Saidahmad va Saidmurod baxshi kabi ijodkorlar, Sirdaryoning faxru g‘ururiga aylangan To‘ra Sulaymon va Halima Xudoyberdieva singari atoqli shoirlar yetishib chiqqanini el-yurtimiz yaxshi biladi. Ularning xalqona donishmandlik bilan yo‘g‘rilgan baxshiyona ohanglari hozir ham munosib izdoshlar sozi va so‘zida jaranglab turibdi” [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning III Xalqaro baxshichilik festivali ishtirokchilariga yo‘llagan yuqoridagi tabrigi orqali, Sirdaryoda ham ko‘plab taniqli baxshilar yashab o‘tganini, bugungi kunda ular ijodini tadqiq etish muhimligini ko‘rsatadi.

Murod shoir Otaboy o‘g‘li 1892-yilda Sirdaryo viloyatining Guliston tumanidagi Qo‘ybotgan qishlog‘ida kambag‘al dehqon oilasida tug‘ilgan, yili ilon, urug‘i qarapchi. Yoshligida ota-onasi o‘lib ketib, yetim qolganligi uchun boylarning uyida xizmatkorlik qilib kun kechirgan. Xususan, hozirgi Oqqo‘rgon tumanining Alimkent qishlog‘ida Alimboy, G‘ozibek, Qarshiboy, O‘rinboy degan chorvador boylarning qo‘lida qarol bo‘lib ishlagan. Yoshlik yillarida Qo‘shnamg‘ali qishlog‘ilik Mardi shoir, Jetiurug‘ qishlog‘ilik Umar shoir, Parchayuz qishlog‘ilik Qodir shoirlarning doston va termalarini ko‘p eshitgan. Ammo bu baxshilar orasida

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Bekobodning Quchchi qishlog‘ida yashagan Suyar shoir o‘zining chechanligi va davrasining fayziligi bilan alohida ajralib turgan. Yoshi yigirmaga borganida bir kecha Suyar shoir uning tushiga kirib, og‘ziga tuplagan hamda yoniga do‘mbira qo‘yib, "Nor tuya", "Boy bo‘lsin" termalarini o‘rgatib ketgan. O‘shandan beri do‘mbira bilan doston va termalarni ayta boshlagan. Ustozlaridan ko‘pgina dostonlarni o‘rganib olib, el orasida baxshi sifatida nom qozongan.

Murod Otaboy o‘g‘lining epik repertuarida "Alpomish", "Qurbonxon", "Zorliq-Mungliq", "Shirin bilan Shakar", "Yusuf bilan Ahmad", "Avazxon", "Malika ayyor", "Qizjibak", "Rustamxon", "Kenja oyim" dostonlari mavjudligi aniqlangan. "Qizjibak" dostonini qozoq tilida ham kuylagan. Bundan tashqari, u "Do‘mbiram", "Nima aytay", "Yaxshidur", "Yarashmas" kabi an‘anaviy termalarni, "Nurulla", "Ayozi", "Gulqahqah" singari o‘nlab o‘zbek xalq ertaklarini ham mahorat bilan aytib bergan.

O‘zR FA Til va adabiyot institutining 1957-yilgi folklor ekspeditsiyasi ishtirokchisi, folklorshunos olim M.Afzalovning qayd etishicha, Murod Otaboy o‘g‘li do‘mbirani juda yaxshi chertgan. Uning kuylari g‘oyat yoqimli bo‘lib, tinglovchilarni o‘ziga tez rom etishi bilan alohida ajralib turgan[2, 611-612.].

"O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligining 13-jildiga Murod Otaboy o‘g‘lidan 1957-yilda folklorshunos olim M.Afzalov yozib olgan hamda M.Jo‘raev tomonidan nashrga tayyorlangan aka-singilning g‘aroyib sarguzashtlari tasvirlangan "Zorliq bilan Mungliq" dostonining namunasi ham kiritilgan. Bu doston O‘rta Osiyo turkiy xalqlari, xususan, o‘zbek va qozoqlar folklorida keng tarqalgan epik asarlar sirasiga kiradi. Binobarin, XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida ushbu epik syujet asosida yaratilgan "Qissai Mungliq-Zorliq", "Hikoyati Zorliq va Mungliq", "Risolai Zorliq-Mungliq" kabi xalq qissalari qo‘lyozma va toshbosma holida keng tarqalgan. Xususan, 1896-1916 yillarda "Hikoyati Zorliq va Mungliq" Qozon shahrida bir necha marta bosib chikarilganliginin o‘zi ushbu qissaning nechog‘lik keng ommalashganligidan dalolat beradi[3, 35].

Murod shoir Otaboy o‘g‘li repertuarida qayd etilgan "Zorliq bilan Mungliq" dostoni ham mazkur epik asarning o‘zbek folklorida qayd etilgan og‘zaki varianti hisoblanadi. O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyot va folklori instituti Folklor arxivida 1933/1-inventar raqami ostida saqlanayotgan "Zorliq bilan Mungliq" dostonining matni ancha ixcham bo‘lib, uning she‘riy qismi 535 misradan iboratdir. Biz quyida ushbu dostoni tahlil etishga harakat qilamiz.

Doston an‘anaviy dostonlarga xos bo‘lgan farzandsizlik motivi bilan boshlanadi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

“O‘tgan zamonda Asqalon mamlakatida Qoraxon podsho bo‘lgan edi. Yoshi oltmishga kirgan edi. Podshoning qirqta xotini bo‘lib, hech farzandi yo‘q edi.” [4, 439].

Podshoh mamlakatdagi butun mullalarni chaqirib rom ochirishni byuradi. Shunda bir mulla podshoga “Zarrin daryosining bo‘yinda bir baliqchi bor, baliqchining qizini olsangiz, u sizga bir qiz bilan bir o‘g‘il tug‘ib beradi”, deydi. Podsho darrov baliqchining qiziga odam qo‘yadi. Baliqchi podshodan qizimga sovchi keliganiga quvonib, qizidan qalinga nima olishin so‘raydi. Shunda baliqchining qizi otasiga bir xalta qilib berdi hamda uni to‘ldirib olishin aytadi.

Qiz bergan xalta podsholikda bor xazinani, zaru tillani solganda ham xalta to‘lmaydi. Shunda bir ayyor kampir xaltachaga bir siqim tuproq tashlab, so‘ng ustidan bir oz tilla solganida xaltacha to‘ladi. Bu o‘rinda xaltacha ramziy mohiyat kasb etuvchi detal bo‘lib, ko‘z, ya‘ni nafsning timsolidir. Xalqimizda, "ko‘zini tuproq to‘ldiribdi" degan naql ham bor. Qizning otasi orqali ushbu xaltachani berib, uni to‘ldirishni so‘rashi aslida sinov sharti bo‘lib, qiz shu orqali o‘zi taqdirini bog‘layotgan kishining aql-idrokini tekshirib ko‘rmoqchi bo‘ladi. Bu motivning doston syujetidan o‘rin olishi qadimgi ajdodlarimiz nikoh marosimlari tizimidagi to‘y oldi sinov udumlarining epik an‘anaga singib ketishi jarayoni mahsulidir.

Podsho to‘y-tamosha qilib baliqchining qiziga uylanadi. Oradan sal ko‘p o‘tmasdan podshoning kenja xotini homilodor bo‘ldi. Podsho xursandligidan to‘qqiz oyni o‘tkazdi. Qizning qornidagi bolasi to‘qqiz oylik bo‘ldi. An‘naviy motivlardagi kabi, bu dostonda ham podsho vazirlarga – Mening yoshim oltmishga kirib hali inga degan bolaning tovishini eshitganim yo‘q. Kenjaoyim tug‘sa, bolasi, inga, deb tovush chiqarsa, men eshitib yuragim yorilib o‘lmayin, man ovga ketay, sevinchiga tuqqandan keyin beringlar! – deb ovga ketdi.

“Doston ekspozitsiyasidagi befarzandlik motividan keyin kaxramon tug‘ilishi arafasida otaning safarga otlanishi tasvirining berilishi bejiz emas. Chunki o‘zbek xalk dostonlari va ertaklaridagi kaxramonning tug‘ilishi bilan bog‘lik motivlar orasida homilador ayol ko‘zi yoriydigan paytda uning eri uzok joyda safarda bo‘lishi motivi muhim o‘rin tutadi. Epik qahramon tug‘ilayotgan paytda uning otasi safarda bo‘lishi hodisasi eposdagi badiiy shartlilikning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, "uzoqlashish motivi" deb ham yuritiladi” [5,7].

Oradan to‘qqiz oy tuqqiz kun o‘tgandan keyin Kenjaoyimga to‘lg‘oq paydo bo‘ldi. To‘lg‘oq paydo bo‘lganini bilgan qirq xotin o‘z oldiga Maston kampirni chaqirib oldi. Ular endi Kenjaoyim hammamizning tepamizga chiqdi. Buning bolasi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

podsho bo‘ladi, deb qo‘rqib mastonga qirq lagan tilla berib Kenjaoyimni tug‘dirib, bir balo qilib bolasini o‘ldirishni byuradilar.

“ – Ey bolam, bizning rasmimiz shunday bo‘ladi. Xotinlar tug‘adigan bolasini tomning ustidan mo‘ridan tug‘adi. Uni man etagimga solib olaman, – dedi. Kenjaoyim “bu elning rasmi ekan-da”, deb rozi bo‘lib, noiloj tomning ustiga chiqib ketdi. Tomning ustiga chiqib bolasini tug‘di. Kampir pastda turib bolalarni etaklab oldi. Biri qiz, biri o‘g‘il ekan. Bolalarning nishonasi boshi oltin, keti kumush bo‘ldi. Shul vaqtda bir it ham tug‘ayotgan ekan. Kampir haligi itning ikki kuchuk bolasini Kenjaoyimning qoniga bo‘yab to‘shakka tashladi-da, tomga chiqib: “Sen badbaxt it tug‘ding!” – deb Kenjaoyimni uraberdi. Kenjaoyimning biqiniga mushtlab, yolg‘ondakamiga ko‘zini yoshlab tomdan pastga tushirib ikki kuchuk bolasini uning emchagiga qo‘ydi. Ikki kuchukvachcha Kenjaoyimning sutini emaberdi. Kenjaoyim o‘zini bilmay qolaberdi”

Ma‘lumki, qahramon tug‘ilgach, uni jonivor (kuchuk bolasi) yoki boshqa birovning bolasi bilan almashtirish motivi ertak syujetiga xos an‘anaviy motivlardan biri bo‘lib, tarixiy asoslariga ko‘ra, "uzoqlashish motivi" bilan uzviy bog‘lanib keladi. Bu kabi epik syujetlarda befarzand shohning xotini tuqqanda uning chaqaloqlarini boshqa birovning bolasi bilan almashtirib qo‘yish motivi xalqimizning chilla davriga aloqador magik qarashlari va mifologik tasavvurlari zamiriga qurilgan bo‘lib, tarixan ritual-magik mohiyat kasb etgan bo‘lsa-da, dostonida ijtimoiy mohiyat kasb etuvchi syujet elementiga aylangan. [4. 441].

Maston kampir ikki bolani etagiga solib daryo bo‘yiga boradi. Hamda o‘z imonsizligidan ham xafa bo‘lishi baxshi tomonidan tasvirlanishini ko‘rishimiz mumkin.

“Ochilgan guldayin so‘lding,
Ey, bolalar, juvarmag bo‘lding.
Ikkovginangning xuningga,
Man imonsiz Izg‘or bo‘ldim.
Ikkovingni daryoga otdim,
Imonimni tillaga sotdim” [4. 441].

Boshqa dostonlarda ko‘p takrorlanadigan motiv bu dostonida ham baxshi tomonidan qo‘llanilganligin ko‘rishimiz mumkin. Dostonida o‘z manfaati uchun har qanday qabihlik va imonsizlikdan qaytmaydigan ichi qora o‘gay onalar tomonidan

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qilingan zulm oqibatida dunyoga kelishi bilanoq onasining bag‘ridan mosuvo bo‘lgan egizaklar boshidan kechirgan g‘aroyib voqealar tasvirlangan. Mazkur doston syujetining tarixiy-genetik asoslari egizaklar kulti bilan bog‘liq qadimgi dualistik miflarga borib taqaladi. Syujet silsilasining tarkibi befarzandlik va qahramonlarning g‘ayritabiiy tug‘ilishi, o‘gay onalar zulmi, chaqaloqlarning daryoga uloqtirilishi, go‘daklarni jonivor (kiyik) emizishi (totemistik motiv), mifologik kuchlarning homiylik qilishi (Xo‘jayi Xizr), bolalaridan ayrilgan onaning yetti qabat to‘qayning eng tubiga tashlanishi (yer osti olamiga safar haqidagi mifik qarashlarga bog‘liq motiv), yovuz kuchlarning timsoli bo‘lgan maston kampirning dushmanligi, qahramonning g‘aroyib narsalarni olib kelish uchun "o‘zga olam"ga safari, ota-ona va bolalarning topishishi, ya‘ni qahramonning o‘z uyiga qaytishi kabi motivlar tizimidan iboratdir.

Baxshi dostonni nafaqat nasriy qismida balki, baxshi mahorati doston yakunida ham so‘zlarni dur kabi terishida ko‘rinadi. Ota o‘z qizi bilan hayrashayotgan joyin ko‘raylik.

“Boshimdan ketdi-da mening davlatim,
Bora-bora haddan oshdi g‘urbatim.
Ko‘ramanmi, ko‘rmaymanmi man sani,
To ko‘rgancha omon bo‘lgin farzandim!

Izg‘or tovning bu boshida tumana,
Dushmanlarga bo‘lsin oxirzamona.
Ko‘ramanmi, ko‘rmaymanmi farzandim,
Bu dunyoda bo‘lib yurgin omona.

Kuygan qullar yig‘lar ekan zor-zor,
Kuyganlarning siynasida dog‘i bor.
Ko‘ramanmi, ko‘rmaymanmi farzandim,
Xudoga topshirdim qo‘zim, allayor” [4, 454-455].

Xullas, Murod shoir tomonidan aka-singilning g‘aroyib sarguzashtlarini tasvirlagan "Zorliq bilan Mungliq" dostoni ijrosini tahlili orqali, baxshi mahoratini ko‘ra olamiz. Mazkur variantning o‘ziga xosligi, birinchidan, doston syujetining strukturual jihatdan mukammalligi, mazmunan teranligi hamda epik qahramon sarguzashtlari bilan bog‘liq voqealarning bir-biri bilan uzviy bog‘langanligi jihatidan

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ajralib turadi. Ikkinchidan, Murod baxshi ijrosida yozib olingan bu doston mazkur epik syujetning qadimiy shakliga mansub motivlarni saqlab qolganligi, jumladan, ovga chiqish, chaqaloqlarni almashtirib qo‘yish kabi motivlar shular jumlasidandir. Uchinchidan, ushbu variantda she‘riy qismlar badiiy jihatdan puxta va pishiq ishlangan bo‘lib, baxshining so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xos iqtidori, an‘anaviy dostonlar matnini buzmagani xolda, o‘ziga xos doston ijrosini yuzaga keltirgan.

Izlanishlarni kuzatar ekanmiz, bizning tadqiqot ob‘ektimiz bo‘lgan Sirdaryo viloyati xalq epik an‘analarining saqlanish holatini ma‘lum bir davr qamrovida olib o‘rganishga yetarlicha e‘tibor qaratilmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Avlodlar o‘rtasidagi ijodiy vorisiylikni, tashqi va ichki ta‘sirlar natijasida an‘analarning yangilanishini o‘rganish bugungi kunning muhim vazifalaridan biriga aylanmog‘i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “III Xalqaro baxshichilik festivali ishtirokchilariga tabrigi”.
2. Murod shoir Otaboy ўғли. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Ж.13: – Гофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
3. Жўраев М. Эзгуликнинг ҳаётбахш кўшиқлари. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Ж.13: – Гофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
4. Зорлиқ билан Мунглик. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Ж.13: – Гофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
5. Орзигул. Ж.12: Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. – Гофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 604 б.